

XOQONIY SHIRVONIYNING IJODIY MEROSI

Jumayeva Kamola,*Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti**Tillar, aniq va ijtimoiy fanlar kafedrası**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b dotsent*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xoqoniy Shirvoniý ijodiy merosi, xususan, uning g'azal, ruboiy, qasidaları tahlilga tortildi. Tadqiqot davomida shoir g'azallarining til jihatdan sodda va ravonligi, tasavvufiy mazmunning chuqurligi, ramziy obrazlardan foydalanishdagi o'ziga xoslik yoritilgan. Shuningdek, devon tarkibidagi janrlar xilma-xilligi, ularning hajm va mazmun jihatdan boyligi ilmiy asoslangan. Shoir ijodida ilohiy ishq, axloqiy poklik, sabr-toqat, kamtarlik kabi umuminsoniy g'oyalar yetakchi o'rin egallashi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Xoqoniy Shirvoniý, g'azal, ruboiy, qasida, tasavvuf, ilohiy ishq, devon.

Abstract. This article analyzes the creative heritage of Xoqoniy Shirvoniý, particularly his ghazals, rubaiyat, and qasidas. The study highlights the simplicity and fluency of the language in the poet's ghazals, the depth of their Sufi content, and the originality in the use of symbolic imagery. In addition, the diversity of genres within the divan, as well as their richness in terms of form and content, is scientifically substantiated. It is determined that universal themes such as divine love, moral purity, patience, and humility occupy a central place in the poet's works.

Keywords: Xoqoniy Shirvoniý, ghazal, rubai, qasida, Sufism, divine love, divan.

Аннотация. В данной статье анализируется творческое наследие Хоqоний Shirvoniý, в частности его газели, рубаи и касыды. В ходе исследования раскрываются простота и плавность языка газелей поэта, глубина их суфийского содержания, а также своеобразие использования символических образов. Кроме того, научно обосновано жанровое разнообразие дивана и его богатство по форме и содержанию. Установлено, что такие общечеловеческие идеи, как божественная любовь, нравственная чистота, терпение и скромность, занимают важное место в творчестве поэта.

Ключевые слова: Хакони Ширвани, газель, рубаи, касида, суфизм, божественная любовь, диван.

Kirish. Hasson ul-ajam Afzaliddin Badil Ibrohim bin Ali Xoqoniy Shirvoniý Ozarbayjonning Shirvon o'lkasida dunyoga kelgan. Eronlik olim Zabihulloh Safo "uning mashhurroq ismi Afzaliddin, zamondoshlari uni shu nom bilan yod etgan" deydi. Shuningdek, olim tazkiranavislar uni "Ibrohim" deb e'tirof etganligini, ammo "Xoqoniy Shirvoniý o'zini Badil deb ataganligini" qayd etgan.

Eronlik olim Badiuzzamon Furuzunfar Xoqoniy Shirvoniý haqida quyidagi fikrlarni qayd etadi: "U shunday shoirki o'zining buyuk iste'dodi, kuchli tafakkuri, teran salohiyati bilan har qanday ma'noda, bizga tanish va notanish, biz o'rgangan va o'rganmagan mazmuni so'z libosida ifoda etish qobiliyatiga ega edi. Uning qudratini har bir qasidasidagi tesha tegmagan mazmunlarni ifodalashi va turfa ma'nolarni o'ziga bo'ysuntira olishidan bilish mumkin". Shoir bilan bevosita zamondosh bo'lgan olim Imom Majididdin Xalil Xoqoniy Shirvoniýni "So'z o'lkalarining valiahd shahzodasi" deya e'tirof etgan.

Adabiyotlar tahlili. Xoqoniy Shirvoniy ijodi sharqshunos va adabiyotshunos olimlar tomonidan turli yoʻnalishlarda tadqiq etilgan boʻlib, ayniqsa uning qasidanavislik mahorati, tasavvufiy qarashlari hamda badiiy uslubi alohida eʼtibor markazida boʻlgan. Zabihulloh Safo, Badiuzzamon Furuzunfar, Yan Ripka kabi olimlar shoir ijodining janriy xususiyatlari, poetik tafakkuri va fors-tojik adabiyoti taraqqiyotidagi oʻrnini ilmiy asosda yoritganlar. Shuningdek, Rizo Sodiq Shahpar va Zahro Riyohiy Zamin tadqiqotlarida Xoqoniy gʻazallarining til jihatdan ravonligi, ramziy obrazlar tizimi hamda tasavvufiy mazmunining badiiy ifodasi tahlil qilingan. Oʻzbek adabiyotshunosligida esa mumtoz sheʼriyat janrlari, xususan qasida va devon tarkibi bilan bogʻliq ilmiy izlanishlar orqali Xoqoniy Shirvoniy merosining janriy va badiiy xususiyatlarini oʻrganishga muhim ilmiy asos yaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Xoqoniy Shirvoniy ijodiy merosini oʻrganishda tavsifiy, qiyosiy-tahliliy hamda lingvopoetik metodlardan foydalanildi. Shoir devonidagi gʻazal, ruboiy, qasida, tarkibband va tarjiʼbandlar janriy-kompozitsion hamda mazmuniy jihatdan tahlil qilinib, ulardagi tasavvufiy timsollar va badiiy sanʼatlarning funksional xususiyatlari aniqlandi. Shuningdek, manbashunoslik yondashuvi asosida sharq va gʻarb olimlarining ilmiy qarashlari qiyosiy oʻrganilib, Xoqoniy Shirvoniy ijodining mumtoz adabiyotdagi oʻrni ilmiy jihatdan asoslandi.

Tahlillar va natijalar. Manbalarda keltirilishicha, Xoqoniy Shirvoniy oddiy oilada dunyoga kelgan. Shoirning otasi duradgor boʻlgan va oʻgʻlini hunarmand boʻlishini xohlab, uning taʼlim-tarbiyasiga koʻp diqqat etmagan, onasi esa musulmonlikni qabul qilgan nasroniy ayol boʻlgan. Shoirning buyuk isteʼdod sohibi boʻlib yetishishida amakisi Kofiuddin Umar ibn Usmonning kattagina taʼsiri boʻlgan.

Xoqoniy Shirvoniy fors va arab tillarida ijod etgan ijodkor sifatida tanilgan zullisonayn boʻlgan. Shoiridan katta adabiy meros qolgan, Ozarbayjonlik olim Xalil Yusufli *“Xoqoniy Shirvoniyning 17 ming baytli lirik sheʼriy devoni, 60 ta munshaoti borligini va ular shoir merosining hammasi emasligini”* taʼkidlaydi.

Qasida va uning kelib chiqishi, turlari va janrning asosiy shakli, mazmuni haqida koʻp manbalarda maʼlumotlar uchraydi. Qisqaroq qilib aytganda, qasida arabcha (قصد) soʻzidan olingan boʻlib *“maqsad, niyat”* va lugʻaviy maʼnosiga koʻra *“toʻlib yetilgan yirik magʻz”* degan maʼnolarni bildiradi. Odatda qasida baytlari *“yetti va oʻn baytdan oshadi va forsiy qasidalarining birinchi bayti bir xil qofiyalanadi”*. Zabihulloh Safo *“qadimda tantanavor uslub va dabdaba qasidaga xos boʻlgan”* deydi. Shoir qasidaları yaqindan oʻrganilar ekan, tadqiqot obyekti boʻlgan devonda uning 132 ta qasidasi borligi maʼlum boʻldi.

Tadqiqot obyekti boʻlgan Xoqoniy Shirvoniy devoni tarkibida 132 ta qasida, 401 ta gʻazal, 351 ta ruboiy, 7 ta tarjiʼband, 9 ta tarkibband, turli mavzularga bagʻishlangan 388 ta sheʼr, 9 ta arabcha qasida va qitʼalar oʻrin olgan.

Shuningdek, shoirdan arab va ajam diyorlarida mashhur *“Ikki Iroq tuhfası”* nomi bilan tanilgan masnaviy ham meros qolgan. Sharqshunos olim Yan Ripka *“Bu asar ayni vaqtda masnaviy usulidagi birinchi forsiy safarnomadir”* deydi. Ozarbayjonda 2004-yil nashr etilgan *“Xoqoniy Shirvoniy. Tanlangan asarlar”* kitobida *“Xoqoniy “Tuhfat ul–Iroqayn” asari bilan Ozarbayjon adabiyotida poemaning tamal toshini qo‘ydi”* deb qayd etilgan.

Xoqoniy Shirvoniy devonining katta qismini g‘azal tashkil etadi. Tadqiqot davomida devonda yuzdan oshiq 7 baytli, yetmishdan oshiq 8 baytli, oltmishdan oshiq 9 baytli g‘azallar borligi ma‘lum bo‘ldi. Shuningdek, devonda ellikka yaqin 6 baytli, qirgga yaqin 10 baytli, o‘ttizga yaqin 11 baytli, o‘ndan oshiq 5, 13 baytli, o‘nga yaqin 14, 15, 16 baytli va 12,18 baytli g‘azallar bir marta, ikkita 19 baytli, uchta 17 baytli g‘azallar borligi aniqlandi. Devondagi eng uzun g‘azal 30 va 22 baytli bo‘lib, har ikkisi bir martadan va eng qisqa g‘azal 3 va 4 baytli g‘azallar bo‘lib, ular ikki marta kelgan.

Devonda berilgan dastlabki saksondan oshiq g‘azallar bilan tanishib quyidagicha xulosa qilindi. G‘azallarda lirik qahramon shoirning o‘zi bo‘lib, u asosan oshiq qiyofasida, goh solik, zohid, ba‘zan tabiat kuychisi va ba‘zan adolatparvar inson siyosida namoyon bo‘ladi. G‘azallarning aksariyati *“ilohiy ishq”* mavzusiga bag‘ishlangan. Ishqiy g‘azallarda zulf, soch, lab, oyna, xol kabi tasavvufiy ramzlar va ularda *“yor vasliga yetolmagan oshiq”*, *“hijronda o‘rtangan oshiq”* timsollari tez-tez uchrab turadi.

Eronlik olim Rizo Sodiq Shahpar Xoqoniy Shirvoniy g‘azallari haqida quyidagi fikrlarni keltiradi. *“Qasidaga qaraganda shoirning tili g‘azallarida juda sodda va ravon”*. Olimning bu fikrlari asosli. Haqiqatan ham shoirning g‘azallarini tushunishda o‘quvchi mashaqqat chekmaydi. Xususan, devonning dastlabki sahifalaridan o‘rin olgan *“ما را”* radifli g‘azalidan misol keltirilsa, ushbu g‘azalda shoir Ollohni madh etgan va unga o‘z xohish-istaklari, arz-u dodi, shikoyatini aytgan. G‘azal sodda tilda yozilgan, lirik qahramon Ollohdan hidoyatga, ma‘rifatga tashna ojiz banda sifatida madad kutgan. Shoir g‘azal mavzusini yoritishda sufiy, darvesh, soqiy kabi ramz va turli tashbehlerden mahorat bilan foydalangan.

Xoqoniy Shirvoniy ijodiy salohiyatining yana bir qirradi ruboiy janrida ko‘zga tashlanadi. Devonda berilgan yuzdan oshiq ruboiylar bilan tanishildi. Ushbu ruboiylar diniy, tasavvufiy mavzularga, o‘z davrining dolzarb muammolariga, umuminsoniy masalalarga bag‘ishlangan. Ko‘p ruboiylarda Ollohga bo‘lgan muhabbat mavzusi qalamga olingan. Shuningdek, ruboiylarda shoir o‘z holini bayon etgan. Xususan, bir ruboiyda *“Ey Xoqoniy bu dunyodan vafo kutma u bevafo, aqling bo‘lsa ishq bilan hamdam bo‘l”* deya o‘ziga-o‘zi nasihat qilgan. Ruboiylarda podshoh, do‘st-dushman, darvesh, yigit, zohid, tabiat tasviri mavzulari ham shoir nazaridan chetda qolmagan. Shoir mazmun jihatdan boy bo‘lgan bu she‘riy janrda an‘anaviy obrazlar va badiiy san‘atlarni mohirona qo‘llagan.

Shoir adabiy merosi haqida so‘z borganda, devondan o‘rin olgan turli mavzularga bag‘ishlangan she‘rlarga alohida to‘xtash zarurati bor. Xoqoniy Shirvoniy bu she‘rlarda

tasavvufiy, ijtimoiy, axloqiy, falsafiy masalalar atrofida fikr yuritgan. Shoir ijodida ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lgan axloqiy, falsafiy mavzulardagi she'rlarda "mol-dunyoga ko'ngil qo'yimaslik, g'ururni tag tomiri bilan uzib tashlash, qiyinchiliklarga chidab yaxshi kunlar kelishiga ishonish va yaxshi insonlarga yo'ldosh bo'lish" kabi ezgu fazilatlar targ'ib etilgan. Xoqoniy bu janrda barakali ijod qilgan. Aksariyat she'rlar diniy-falsafiy ruhda yozilgan bo'lib, ular hajm jihatdan turli xil va she'rlarning deyarli hammasiga sarlavha qo'yilgan.

Xoqoniy devonida mumtoz adabiyotning eng ko'hna she'riy janri hisoblangan tarkibband va tarji'bandlarga ham alohida e'tibor berilgan. Ularning har ikkisi murakkab bo'lishiga qaramay shoir o'zini bu she'riy janrlarda sinab ko'rgan. Shoir devonida tarkibband janrining 9 ta, tarji'band janrining 7 ta namunasi bor. Ular son jihatdan ko'p bo'lmasa-da, mazmunan juda boy va har biri hikmatli so'z kabi o'zida bir olam ma'no jamlagan. Shuningdek, Xoqoniy Shirvoniy an'anaviy janrlarning hajm jihatdan eng kichigi hisoblangan qit'a janrida ham o'z mahoratini sinab ko'rgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Xoqoniy Shirvoniy ijodi mazmundor va janr jihatdan rang-barangdir. Uning g'azallari sodda, tushunarli va chuqur tasavvufiy mazmun bilan sug'orilgan. Shoir ruboiylarida hayotiy va alsafiy fikrlar ixcham shaklda ifodalangan. Xoqoniy Shirvoniy qasidalari murakkab badiiy uslub va mahorat bilan yozilgan. Shoir ijodida ilgari surilgan ilohiy ishq, sabr, kamtarlik va ma'naviy poklik kabi g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хасанова М. XV аср туркий шеърлятида қасида жанри: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2018.
2. Sultanov M. Xaqani Shirvani seçilmiř eserleri. – Baki: Lider Neřriyyat, 2004. – S. 609.
3. ذبیح الله صفا. تاریخ ادبیات در ایران. جلد دوم. – تهران، ۱۳۷۱. – ص. ۶۰۹.
4. جهانگیر منصور. دیوان خاقانی شروانی. – تهران، ۱۳۷۵. – ص. ۳۵.
5. زهرا ریاحی زمین. طرز سخن خاقانی و حافظ // مجله علوم اجتماعی و انسانی دانشگاه شیراز. – شیراز، ۱۳۸۴. – ص. ۷۸.
6. آشنایی با خاقانی شروانی از نامدارترین شاعران ایرانی. هنر اسلامی.
7. یان رییکا و دیگران. تاریخ ادبیات ایران. – تهران، ۱۳۸۱. – ص. ۲۸۹.
8. ^۱ رضا صادقی شهپر. کارکرد مدحی اساطیر در شعر خاقانی // فصلنامه ادبیات عرفانی و اسطور هشناختی. – همدان، ۱۳۹۸. – ص. ۲۲۳.